



ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGIDA TA’LIMiy O‘YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich
ta’lim yo‘nalishi 1-22-guruh talabasi*

Qoryog‘diyeva Mohinur

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida ta’limiy o‘yinlardan foydalanishning samaradorligi, o‘yin orqali o‘quvchilarda tilga bo‘lgan qiziqish, tafakkur va ijodiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Bundan tashqari maqolada dars jarayonlarida qo‘llash mumkin bo‘lgan bir qancha ta’limiy o‘yinlar haqida ham qisqacha ma’lumot berib o‘tamiz.

Kalit so‘zlar: ona tili, savodxonlik, ta’limiy o‘yin, didaktika, qiziqish, interfaol metod.

Ключевые слова: родной язык, грамотность, обучающая игра, дидактика, интерес, интерактивный метод.

Keywords: native language, literacy, educational game, didactics, interest, interactive method

Kirish

Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularni darsga faol jalb qilish, bilimlarni hayotiy misollar orqali o‘zlashtirishga yo‘naltirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘zlarining ijtimoiy faoliyatini o‘zgartirgani uchun ularda o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshirish juda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, aynan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘yin faoliyatidan o‘qish faoliyatiga o‘tganida ularda murakkab psixik jarayonlar kuzatiladi. Bu jarayonlarni to‘g‘ri boshqarish



uchun qiziqarli o‘yinlar va interfaol metodlardan foydalanish, bugungi kun ta’lim jarayoniga suv va havodek zarurdir.

Asosiy qism

Ta’limiy o‘yinlar haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, ular avvalo bolalarning yoshiga mos va xos bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda ustuvor jihatlarni o‘z ichiga olishi zarur. Dars jarayonida bir qancha samarali metod va o‘yinlardan foydalanish mumkin va ularning bir necha guruhlarga ajratiladi. Didaktik o‘yinlar – bu o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlovchi, ularni faol fikrlashga undovchi ta’lim vositasidir. O‘yinlar yordamida o‘quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etadi, yangi so‘zlarni yodlab oladi, matnlarni to‘g‘ri o‘qish va tahlil qilishga o‘rganadi.

Ona tili darslarida o‘yinlardan foydalanish. Ona tili darslarida o‘yinlar orqali so‘z boyligini oshirish, imlo qoidalarini mustahkamlash, gap tuzish malakalarini shakllantirish mumkin. Masalan:

“To‘g‘ri yoz – yutib ol” o‘yini – imlo mashqlari uchun. Bu o‘yinda o‘qituvchi o‘quvchilarga talaffuzda ajratish qiyin bo‘lgan "x" va "h", "o" va "u" tovushlari ishtirok etgan murakkab so‘zlarni o‘qib turadi, o‘yinda qatnashayotgan doskadagi o‘quvchi so‘zni imlo jihatdan to‘g‘ri yozishi kerak bo‘ladi. Har bir to‘g‘ri yozilgan so‘z uchun 1 balldan berib boriladi. Oxirida yuqori ball to‘plagan o‘quvchiga rag‘batlantirish maqsadida mukofot beriladi.

“So‘zlardan gap tuz” – grammatikani mustahkamlash uchun. Kichik guruhlarda foydalanish samarali bo‘ladi. Bu didaktik o‘yinda o‘qituvchi tomonidan tayyorlab kelingan so‘zlar konvert ichiga solingan bo‘ladi. Har bir guruh uchun 10 tadan so‘zlar tayyorlanib, ularga ushbu so‘zlardan gap tuzish topshirig‘i beriladi. So‘ngra qaysi jamoa ko‘p gap tuzgan bo‘lsa, shu jamoa g‘olib deb topiladi. Bu



metodda gaplarning mazmunli va xatosiz tuzilganligiga ham ahamiyat berish darkor.

O'qish savodxonligida o'yinlardan foydalanish

O'qish darslarida hikoya yoki matn asosida rolli o'yinlar, matnni topish, savol-javoblar, tez o'qish musobaqalari o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bular orqali o'quvchilar so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, matn mazmunini tushunish va tahlil qilishga o'rganadi. Keling, quyida ular bilan tanishamiz :

- Birinchidan, rolli o'yinlar orqali o'quvchilar matn qahramonlarining obraziga kirib, ularning his-tuyg'ularini anglashga, voqeani jonli tasavvur qilishga o'rganadilar. Bu usul bolalarda ifodali o'qish, nutq madaniyati va ijodiy tafakkurni shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

- Ikkinchidan, matn asosida savol-javoblar tashkil qilish o'quvchilarning diqqatini oshirish, matn mazmunini chuqur anglash va asosiy g'oyani ajrata olish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Savollar orqali o'quvchi o'z fikrini erkin bayon qilishga, mulohaza yuritishga undaladi.

- Uchinchidan, tez o'qish musobaqalari o'quvchilarning o'qish tezligi va aniqligini oshiradi. Bu usulni rag'batlantiruvchi o'yin shaklida tashkil etish orqali o'quvchilar o'zaro bellashadilar va dars jarayonida faol ishtirok etadilar.

- Shuningdek, matnni topish yoki davom ettirish o'yinlari orqali o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, kontekst asosida taxmin qilish, hamda ijodiy yondashuv shakllanadi. Bu kabi o'yinlar o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini uyg'otib, o'qish savodxonligini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.



Innovatsion o'yin texnologiyalarining afzalliklari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, ular yordamida darsni tashkillashtirish nafaqat o'quvchilar uchun, balki o'qituvchilar uchun ham qulay va samaralidir.

Raqamli texnologiyalar yordamida yaratilgan interaktiv o'yinlar (mobil ilovalar, test platformalari) ham o'qish savodxonligini oshirishda katta ahamiyatga ega. O'yin shaklida tashkil etilgan testlar, viktorinalar bolalarda bilimga bo'lgan intilishni kuchaytiradi.

Xulosa

Boshlang'ich ta'limda ona tili va o'qish savodxonligi darslariga ta'limiy o'yinlarni joriy etish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirish, darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish, shaxsiy faolligini rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar ijodkorlik bilan yondashgan holda har bir darsni o'yin bilan uyg'unlashtirsa, natijalar yanada samarali bo'ladi. O'yin orqali ta'lim berish o'quvchilarning darsdagi ishtirokini faollashtiradi, mustaqil fikrlash, so'z boyligini oshirish, matnni anglash va mantiqiy izchillikda fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, rolli o'yinlar, tez o'qish musobaqalari, savol-javoblar kabi usullar o'quvchilarning til bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirib, ularni o'z fikrini erkin ifoda eta oladigan faol shaxs sifatida tarbiyalaydi. Shu bois, ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ta'limiy o'yinlardan maqsadga muvofiq va tizimli foydalanish boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vygotskiy L.S. – “Pedagogik psixologiya”, Moskva, 1982.
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi – Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qish darsliklari (2021-yil nashri).
3. Karimova N. “Boshlang'ich ta'lim metodikasi”, Toshkent, 2019.
4. Abduqodirov A. “Interfaol metodlar va ularning samaradorligi”, “Ta'lim”, 2020.